BUXORO VILOYATI TUMANLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASH

Cho'lliyev Obid Ostonovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya *Mazkur maqolada Buxoro viloyati tuman va shaharlarining investitsion salohiyati statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Yalpi hududiy mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, aholi soni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Har bir hududning kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, ularning investitsion jozibadorlik darajasi reyting asosida baholangan. Natijalar asosida investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *investitsion salohiyat, hududiy tahlil, Buxoro viloyati, investitsion jozibadorlik, sanoat, qishloq xo'jaligi.*

Аннотация *В данной статье проведена оценка инвестиционного потенциала районов и городов Бухарской области на основе статистических данных. Проанализированы показатели валового регионального продукта, объемов промышленной и сельскохозяйственной продукции, численности населения и инвестиций в основной капитал. Определены сильные и слабые стороны каждого региона, а также составлен рейтинг инвестиционной привлекательности. На основе анализа предложены рекомендации по привлечению инвестиций.*

Ключевые слова: *инвестиционный потенциал, региональный анализ, Бухарская область, инвестиционная привлекательность, промышленность, сельское хозяйство.*

Abstract *This article evaluates the investment potential of the districts and cities of Bukhara region based on statistical data. Key indicators such as gross regional product, industrial and agricultural output, population size, and investments in fixed capital are analyzed. The strengths and weaknesses of each territory are identified, and an investment attractiveness rating is developed. Based on the results, strategic recommendations for attracting investments are proposed.*

Keywords: *investment potential, regional analysis, Bukhara region, investment attractiveness, industry, agriculture.*

Xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb etish jarayonida mamlakat miqyosida yaratilgan investitsion muhit, qulay biznes sharoitlari va hududlarning nisbiy afzalliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa xorijiy investorlar uchun investitsion jozibadorlikni belgilovchi mezonlar - iqtisodiy barqarorlik, huquqiy kafolatlar, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, soliq va bojxona imtiyozlari kabi omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hududlar miqyosida investitsion jozibadorlikni baholashda zamonaviy tahliliy yondashuvlar va statistik metodlardan foydalaniladi.

Mavjud ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, O‘zbekiston hududlarining investitsion jozibadorlik darajasi oltita asosiy omil (iqtisodiy salohiyat, infratuzilmaviy rivojlanish, resurs bazasi, institutsional muhit, ijtimoiy ko‘rsatkichlar, demografik va geografik xususiyatlar) asosida baholanadi hamda umumiy integral indeks orqali aniqlanadi. Xususan, Buxoro viloyati investitsion salohiyatga ega bo‘lgan, ammo ushbu salohiyat to‘liq ro‘yobga chiqmayotgan hududlar sirasiga kiradi. Viloyatda sanoat va qishloq xo‘jaligida mavjud resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirish, logistika tizimlarini takomillashtirish va biznes yuritish muhitini yanada soddalashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin. Shu bilan birga, tumanlar kesimida tahlil olib borish, ularning individual xususiyatlarini aniqlash va tumanlararo raqobatbardoshlik darajasini baholash orqali aniq strategik yo‘nalishlarni belgilash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat va uning alohida hududlarida shakllantirilgan investitsion jozibadorlik, qulay biznes muhiti hamda hududlar o‘rtasidagi nisbiy ustunliklar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, xorijiy investorlar hududni tanlashda aynan yuqoridagi omillarni chuqur tahlil qiladi. Shuning uchun ham hududlarning investitsion jozibadorligini baholashda zamonaviy baholash uslublaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda hududlarning investitsion jozibadorlik darajasini aniqlashda olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga ko‘ra, kompleks baholov oltita asosiy omil - tabiiy resurslar salohiyati, iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiyaviy muhit, infratuzilma holati, institutsional tizim va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanganligi - asosida amalga oshiriladi. Bu mezonlar asosida integral indekslar shakllantirilib, ular yordamida hududlar uchta guruhga ajratiladi: yuqori investitsion jozibadorlikka ega guruh, o‘rtacha investitsion jozibadorlikka ega guruh va past investitsion jozibadorlikka ega guruh.

1-jadval. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik), ming so'm

Hudud	2010	2013	2016	2019	2021	2023
Buxoro viloyati	1 322	1 720	3 238	5 429	10 463	15 309
Buxoro shahri	548	955	4 776	9 988	15 925	15 934
Kogon shahri	2 022	1 009	659	5 419	5 449	6 003
Olot tumani	1 990	12 045	29 794	14 055	12 839	9 782
Buxoro tumani	233	604	924	2 485	8 139	11 749
Vobkent tumani	194	439	290	2 029	4 232	6 430
G‘ijduvontumani	243	404	485	1 511	2 128	14 774
Kogon tumani	1 410	1 600	2 556	10 590	20 135	21 235
Qorako‘l tumani	164	336	559	2 426	6 133	15 816
Qorovulbozor tumani	6 453	9 460	9 335	14 853	42 600	185 744
Peshku tumani	221	432	612	3 708	4 755	31 691
Romitan tumani	1 341	2 577	5 917	14 608	46 715	27 000
Jondor tumani	181	375	592	2 162	2 866	3 024
Shofirkon tumani	151	313	438	2 124	2 363	1 993

Qorovulbozor tumani aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2010 yildagi 6,45 mlrd. so‘mdan 2023 yilda 185,74 mlrd. so‘mgacha o‘sdi. Bu taxminan 28,7 barobar o‘sishni anglatadi. Bu ko‘rsatkich tumanning sanoat sohasida juda katta rivojlanishga erishganini ko‘rsatadi va viloyatdagi yetakchi sanoat markazi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamladi. Viloyatning boshqa tuman va shaharlarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi karrasiga o’sgan: Peshko’tumani 143,2 baravarga, Qorako‘l tumani 96,4 baravarga, G‘ijduvon tumani 60,8 baravarga, Buxoro tumani 50,4 baravarga, Vobkent tumani 33,2 baravarga, Buxoro shahri 29,1 baravarga, Romitan tumani 20,1 baravarga, Jondor tumani 16,7 baravarga, Kogon tumani 15,1 baravarga, Shofirkon tumani 13,2 baravarga, Olot tumani 4,9 baravarga va Kogon shahri 3,0 baravarga o‘sgan.



1-rasm. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

Hududlar bo‘yicha investitsion salohiyatni chuqurroq tahlil qilish uchun alohida ko‘rsatkichlar asosida baholash zarur. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: investitsiyaviy faoliyatga oid normativ-huquqiy baza va uning amalda tatbiq etilishi, hududning yalpi hududiy mahsuloti (YHM), tadbirkorlikni boshlash sharoitlari va ishbilarmonlik muhiti indeksi, mavjud infratuzilma ob’yektlari, mehnat resurslarining malaka darajasi hamda tabiiy boyliklar bilan ta’minlanganlik holati, ayni paytda Buxoro viloyatining tumanlar kesimidagi investitsion salohiyatni aniqlash maqsadida 2010–2023 yillar oralig‘idagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi o‘rganildi.

2-jadval. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sishi

Hudud	2010	2023	O'sish, barobar
Buxoro viloyati	1 322	15 309	11,6
Buxoro shahri	548	15 934	29,1
Kogon shahri	2 022	6 003	3,0
Olot tumani	1 990	9 782	4,9
Buxoro tumani	233	11 749	50,4
Vobkent tumani	194	6 430	33,2
G‘ijduvontumani	243	14 774	60,8
Kogon tumani	1 410	21 235	15,1
Qorako‘l tumani	164	15 816	96,4
Qorovulbozor tumani	6 453	185 744	28,8
Peshku tumani	221	31 691	143,2
Romitan tumani	1 341	27 000	20,1
Jondor tumani	181	3 024	16,7
Shofirkon tumani	151	1 993	13,2

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Shofirkon, Jondor, Vobkent va Olot tumanlari hamda Kogon shahri bo’yicha aholi jon boshiga to‘gri keladigan investitsiya hajmi past ekanligi ko’rinadi. Demak ushbu tumanlarning demografik imkoniyatlariga mutanosib ravishda investitsiya salmog‘ini keskin oshirish bo’yicha tavsiya va choralar ishlab chiqish talab qilinadi.

Har bir investor hududga investitsiya kiritishda u yerda mavjud alohida imtiyozlar, preferensiyalar yoki qo‘shimcha yengilliklarning mavjudligi bilan qiziqadi. Infratuzilmaning mavjudligi xorijiy sarmoyador uchun o‘z investitsiyasini ishonch bilan yo‘naltirishda muhim kafolat sifatida xizmat qiladi.

Hududlarning investitsion jozibadorligi va u yerga xorijiy investitsiyalarni jalb etish darajasi ko‘p jihatdan quyidagi muhim omillar bilan belgilanadi:

- Huquqiy va normativ baza takomillashuvi;
- Investitsion ma’lumotlarning yagona ochiq bazasi;

- Hududiy boshqaruv tizimining samaradorligi va ma'muriy to'siqlarning kamaytirilganligi;
- Soliq va kredit tizimining maqbulligi;
- Transport, aloqa va logistika infratuzilmasining rivojlanganligi;
- Iqtisodiyotning ochiqligi;
- Hududiy imidj (obro'-e'tibor);
- Bank-moliya va sug'urta bozoriga kirish imkoniyatlari;
- Mahalliy imtiyoz va yengilliklar mavjudligi.

Mazkur omillarning har bir hududda mavjudligi yoki ularning darajasi xorijiy investitsiyalar oqimi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli ham Buxoro viloyati tumanlarining investitsion salohiyatini baholashda faqat mavjud ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini emas, balki yuqorida sanab o'tilgan tizimli omillarni ham inobatga olish lozim. Ana shundagina har bir tuman bo'yicha nisbiy ustunliklar aniqlanadi va ularni rivojlantirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayeva Z.Q., "Favorable Investment Climate Formation Issues for Attracting Active Investments".
2. Akramova O.K., "Improvement of assessment system of investment attractiveness of regions" (Informatics. Economics. Management, 3(2):0115–0125). Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro (2024)
3. Jumaev N.X. va boshqalar (2019) "Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions" (International Journal of Economics, Commerce and Management).
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2010–2023).